



CLASSIFICATORY ANALYSIS OF JOURNAL TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE

Bekmurodov Tog‘oymurod Panjiyevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Chirchik State Pedagogical University,

Email: bekmurodovtogaymurod@gmail.com

Abstract

The article provides a scientific and theoretical analysis of the classification, linguistic features, and etymology of journal terminology in the Uzbek language. Press and publishing terms are examined through a systematic approach, studying both traditional and modern concepts. The formation of new terms related to electronic journals and digital technologies, as well as their role in practical communication, is analyzed. The results serve to identify development trends in terminology and support standardization efforts.

Keywords: Journal, term, terminology, printing, publishing, print edition, electronic journal, digital technology, content, synonymous terms, editorial office, term studies, multi-component units, lexical-semantic analysis, terminology systematization.

O‘ZBEK TILIDA JURNAL TERMINLARINING TASNIFIY TAHLILI

Bekmurodov Tog‘oymurod Panjiyevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: bekmurodovtogaymurod@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilida jurnal terminlarining tasnifi, lingvistik xususiyatlari va ularning etimologiyasi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Matbuot va nashriyot terminlari tizimli yondashuv bilan ko‘rib chiqilib, an’anaviy va zamonaviy



atamalar o'rganilgan. Elektron jurnal va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yangi terminlarning shakllanishi va amaliy kommunikatsiyadagi o'rni tahlil qilingan. Natijalar terminologiyaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va me'yorlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Jurnal, termin, terminologiya, matbaa, nashriyot, bosma nashr, elektron jurnal, raqamli texnologiya, kontent, sinonim terminlar, tahririyat, atamashunoslik, ko'p komponentli birliklar, lexik-semantik tahlil, termin tizimlashtirish.

Аннотация

В статье научно-теоретически проанализирована классификация, лингвистические особенности и этимология терминов журнала в узбекском языке. Термины прессы и издательства рассмотрены с системным подходом, изучены традиционные и современные понятия. Проанализировано формирование новых терминов, связанных с электронным журналом и цифровыми технологиями, а также их роль в практической коммуникации. Результаты способствуют выявлению тенденций развития терминологии и обоснованию необходимости её нормализации.

Ключевые слова: Журнал, термин, терминология, печать, издательство, печатное издание, электронный журнал, цифровые технологии, контент, синонимичные термины, редакция, терминоведение, многокомпонентные единицы, лексико-семантический анализ, систематизация терминологии.

Kirish

Tilshunoslik fanida muayyan tushunchalarni ifodalovchi umumiy va maxsus terminlar, termin va atama tushunchalari bo'yicha turli xil qarash va talqinlar mavjud. Terminga qo'yiladigan talablar, terminning xususiyatlari, undagi ko'p ma'nolilikni ifodalash jihatlari, sinonim, antonim terminlarning mavjudligi, terminning so'z yoki so'z birikmasi shaklida ifodalanishi kabi mavzular A. Superanskaya, N. Kotelova, J. Kapanadze, V. Danilenko, B. Kryuchkova va B. Golovin kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Shunday bo'lsa-



da, ushbu masalalar yuzasidan lingvistikada yaxlit xulosaga kelinmagan, olimlarning yondashuv va qarashlarida farqliliklar ko'zga tashlanadi. Leksikologiya bo'yicha amalga oshirilgan ayrim zamonaviy tadqiqotlarda ham so'zni atama yoki atama bo'lmagan birliklarga nisbatlash uchun aniq farqli yondashuv uchramaydi. Chunki ayrim hududlarning leksik birliklarida terminologik va umumiy so'zlardan foydalanish o'rtasida aniq chegara mavjud emas"[Крючкова, 1989]. Shu o'rinda qayd etish joizki, "terminologiya adabiy tilning quyi tizimi sifatida qaraladi, ya'ni atamashunoslik umumiy adabiy til doirasida, lekin mustaqil "sektor" hisoblanadi. Terminologiyaning bu "ma'muriy-hududiy" pozitsiyasi, bir tomondan, umumiy adabiy til taraqqiyotidagi tendensiyalarning majburiyligini, ikkinchi tomondan, atamashunoslik taraqqiyotida ma'lum bir erkinlik, mustaqillik va o'ziga xos xususiyatni belgilaydi. Adabiy til rivojiga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Quyida ilmiy ishimiz mavzusi doirasida matbaa terminlarning umumiy va maxsus lug'atlarda berilishi masalalariga e'tibor qaratgan holda, terminologiya masalalarini jurnal nomlarini anglatuvchi terminlar misolida tahlil qilishga hamda terminlarning tizimdagi o'rnini tavsiflash, baholashga harakat qilamiz. Mazkur holatdan kelib chiqib, maqolamizda matbaa sohasiga oid terminlarning umumiy va maxsus lug'atlarda qanday berilganiga e'tibor qaratamiz. Jumladan, "jurnal" kabi terminlar misolida terminologik yondashuvlar tahlil qilinadi, terminlarning tizimdagi o'rni, vazifasi va ma'nodagi nozik farqlari tavsiflanadi. "Jurnal" termini fransuz tilidagi journal so'zidan olingan bo'lib, "gazeta", "kundalik daftar" kabi ma'nolarni anglatadi. Kitobcha yoki majmua shaklida belgili vaqtda chiqib turadigan davriy nashr. Kundalik ish, voqea, hodisa va sh.k. yozib boriladigan qayd daftari [O'TIL, II, 694].

Jurnal bosma davriylik ruhida bo'lib, axborotni tanlash, tahlil etish va baholashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Jurnal gazeta kabi jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish yo'li bilan uni shakllantirishga xizmat qiladi; omma ijtimoiy ongiga muayyan g'oya va qadriyatlarni singdiradi. Jurnallar dastlab Fransiyada nashr qilingan. Inglizcha "Magazine", fransuzcha "Revue", nemischa "Zei schrift", ispancha "Relista" so'zlari ham jurnal ma'nosini anglatadi. Chop etilish muddati (davriyligi) jihatdan jurnallar, odatda, haftada, o'n kunda, ikki haftada, oyda, ikki oyda, har uch oyda, yarim yilda bir marta nashr



qilinadi. Bunday davriylik jurnallarda turmush voqealarini kundalik gazetaga nisbatan batafsilroq va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Jurnallar mundarija yoʻnalishiga koʻra ham farqlanadi: ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy, ishlab chiqarish-texnikaviy, ilmiy, ilmiy-ommabop va boshqalar. Jurnallar jamiyatning turli yosh, toifa, kasb, yoʻnalish, fan-texnika, ishlab chiqarish, maʼnaviyat singari soha va qatlamlariga moʻljallangan boʻlishi kuzatiladi.

Ommaviy ijtimoiy-siyosiy va adabiy-badiiy jurnallarda suhbat, publitsistik kuzatuv, maʼlum mavzuni sharhlovchi maqolalardan tashqari, reportajlar, sheʼrlar, hikoyalar, qissa va romanlar ham bosiladi. Soʻnggi paytlarda ommaviy jurnal sahifalaridan krossvordlar, amaliy sanʼat asarlari, modalar, uy bekalariga maslahatlar, shaxmat etyudlari va hokazolar tobora kengroq oʻrin olmoqda. Haftalik, oʻn kunlik jurnallarda chizma rasm va fotosuratlardan foydalaniladi. Ilmiy jurnallarda hajman katta maqolalar bilan birga referatlar, annotatsiyalar, xulosalar, ilmiy hayotga oid ixcham xabarlar ham eʼlon qilinadi. Jurnal hajmini va uni bezash unsurlarini belgilashda jurnal mundarijasi va uning oʻquvchilari doirasidan kelib chiqiladi. Odatda, ommaviy jurnallar – ijtimoiy-siyosiy va adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop, bolalar, ayollar va oʻsmirlar uchun moʻljallangan nashrlar katta hajmda chiqariladi.

Turkistonda milliy jurnalchilik tarixiga atoqli maʼrifatparvar adib va publitsist Mahmudxoʻja Behbudiy asos solgan. Uning muharrirligida 1913–1915-yillarda Samarqand shahrida “Oyna” jurnali nashr qilingan. Mazkur jurnal turkistonliklarni zamonaviy ilm-u urfon va maʼrifatdan bahramand etish, oʻlkadagi milliy taʼlim tizimini isloh qilish kabi davr uchun dolzarb masalalardan bahs yuritgan. Keyinchalik jadid maʼrifatparvarlari tomonidan ijtimoiy-siyosiy va adabiy yoʻnalishdagi bir qancha yangi oʻzbekcha jurnallar paydo boʻldi. Jumaladan: “Kengash” (keyinchalik “Hurriyat” nomi bilan chiqqan), “Yurt”, “Chayon”, “Ishchilar dunyosi”, “Inqilob”, “Mushtum” kabi yangi jurnallar chiqqan boshlagan. 1918–1924-yillar Turkistonda jami 129 nomda jurnal va byulleten nashr qilingan.

Oʻzbekistonda davlat mustaqilligi eʼlon qilingach, keng ommaga moʻljallangan mavjud jurnallar faoliyati qayta tashkil qilindi. Respublikamizda jami 165 ta jurnal nashr etiladi, ularning yillik oʻrtacha adadi 704,7 ming nusxa (2002). Yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda, milliy ongini oʻstirishda ijtimoiy-



siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va adabiy-badiiy jurnallar yetakchilik qilmoqda. Bu turkumga mansub "Sharq yulduzi", "Guliston", "Farmatsevtika", "Hidoyat", "Moziydan sado", "Fan va turmush", "Tasvir", "Til va adabiyoti ta'limi", "Saodat", "Muloqot", "Yoshlik", "Mushtum" jurnallari qatoriga istiqbol davriga kelib "Tafakkur", "Sog'lom avlod uchun", "Jahon adabiyoti" kabi ilmiy jurnallar qo'shildi.

Ma'lumki, har bir fan sohasi doimiy taraqqiyotda bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, undagi tushunchalarning o'zgarib turishiga olib keladi. Shuningdek, u fan va texnika taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanib boradi. Shuning uchun ham terminologiya ma'lum vaqt o'tishi bilan to'ldiriladi hamda qayta nashr qilinadi. Matbuot va nashriyot terminologiyasi tizimida birgina tushunchani ifodalovchi bir nechta terminlar mavjudligi kuzatiladi. Bunday holat sinonim terminlar vositasida tushuncha mazmunining turli jihatlarini ifodalash imkonini beradi. Masalan, muharrir // redaktor, muallif // avtor, matn // tekst, jild // tom, taqriz // retsenziya, vaqtli nashr // davriy nashr, korrektor // musahhih, xatboshi // abzats, xotima // so'nggi so'z kabi terminlar bir-biriga sinonim sifatida qo'llaniladi. Bu soha terminologiyasida ko'p komponentli terminlarning mavjudligi ularning terminologik tamoyillar asosida tartibga solishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, matbuot va nashriyot sohasida ishlatiladigan "tahririyat", "tahrir" va "tahrir hay'ati" kabi terminlar o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ma'no va funksiyalar jihatidan farq qiladi.

Tahririyat - nashriyot yoki matbuot organlari tarkibidagi bo'lim bo'lib, qo'lyozmalarni nashrga tayyorlash, tahrirlash va matnlarning to'g'ri-ligini tekshirish bilan shug'ullanadi. Shu bo'limdagi mutaxassislar esa tahririyat xodimlari deb ataladi. **Tahrir** esa yozma matnni tuzatish, shakl va mazmun jihatidan yaxshilash jarayonini anglatadi. Bu jarayon ilmiy, adabiy, siyosiy va texnik tahrir kabi turli shakllarda amalga oshiriladi. Shuningdek, **tahrir hay'ati** - nashr etilayotgan materiallarga ilmiy-metodik rahbarlik qiluvchi mutaxassislar guruhi bo'lib, ular nashr sifatini ta'minlash va muhim qarorlarni qabul qilishda faol ishtirok etadi. Bu misoldan yaqqol ko'rinadiki, bugungi noshirlik ishi, ayniqsa, matn ustida ishlash, tahlil va tahrir boy tarixga ega [Toxirov, 2012].



Matbaa sohasida terminlar ko‘pincha bosma mahsulotlar va ularning ishlab chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu munosabat bilan “bosma” atamasi - bosma asarlar, ya’ni matbaa orqali ko‘paytirilgan va nashr qilingan materiallarni ifodalovchi asosiy tushunchalardan biridir. Bosma mahsulotlar matbuotning rivojlanishida, bilim va madaniyatning ommalashuvida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, bosma so‘zining terminologik mazmuni va uning turli kontekstlarda qo‘llanilishi sohaning terminologik tizimini chuqurroq anglash uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Bosma - matbaa usulida chop etilgan, nashr qilingan asar yoki materiallarni ifodalovchi atama bo‘lib, bosmaxona faoliyati bilan bevosita bog‘liq tushunchadir. Bosma mahsulotlar qatoriga kitob, gazeta, jurnal, risola, plakat kabi turli matbaa nashrlari kiradi. Bosma hajmi va formatining o‘lchov birligi sifatida bosma taboq tushunchasi qo‘llaniladi; u standart 60×90 sm o‘lchamdagi qog‘oz varag‘ining bir tomonidagi nusxani anglatadi. Shuningdek, “bosma” atamasi bosmaxona harflari va bosma matnlarda ishlatiladigan harflarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Bosma so‘zining tarixiy ma’nosi esa chop etish va nashr qilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, adabiyot va matbuot sohasida keng qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur‘atlarda rivojlanishi natijasida matbuot va nashriyot sohasida yangi tushunchalar va terminlar paydo bo‘ldi. An’anaviy bosma nashr jarayonlaridan tortib, elektron va raqamli nashrlarga qadar bo‘lgan keng ko‘lamdagi jarayonlar va vositalar bugungi kunda matbuot sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun, matbuot va nashriyot tarmog‘ida qo‘llaniladigan atamalarni aniq va tizimli tarzda tasniflash, ularning mohiyatini chuqur o‘rganish hamda zamonaviy terminologiyani shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Matbuotning an’anaviy shakllari – gazeta, jurnal, kitob kabi bosma nashrlar hozirgi kunda elektron nashrlar, raqamli media va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent bilan uzviy bog‘langan holda rivojlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida, atamalar va tushunchalar ko‘lamining kengayishiga olib keldi. Bosma nashr sohasida ishlatiladigan “tiraj”, “muqova”, “mundarija” kabi an’anaviy terminlar bilan bir qatorda, “kontent”, “elektron jurnal”, “raqamli texnologiyalar” kabi yangi tushunchalar ham nashr jarayonini to‘liq yoritishda muhim rol o‘ynaydi.



Ushbu terminlar sohaning turli jihatlarini, masalan, nashrning hajmi va sifati, tayyorlash va tarqatish jarayonlari, shuningdek, axborotni yaratish va iste'mol qilish shakllarini ifodalashda yordam beradi. Matbuot terminologiyasining zamonaviy shakllanishi sohaning ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini boyitadi va professional kommunikatsiyani yaxshilaydi. Shu nuqtai nazardan, quyida keltiriladigan terminlar to'plami nafaqat an'anaviy bosma matbuot, balki zamonaviy elektron va raqamli nashr sohasidagi asosiy tushunchalarni ham o'z ichiga oladi.

Tiraj – kitob, jurnal, gazeta va shu kabilarning bosilib chiqqan nusxalarining umumiy soni, adadi; **Ofset qog'oz** – qoplanmagan qog'oz (ofset qog'oz) rasmi nashrlarni (ham bir rangli, ham ko'p rangli), jurnallar, kitoblar va gazetalarni chop etish uchun ishlatiladi; **Ottisk** – jurnal, to'plam va shu kabilarda bosilgan maqoladan olingan alohida nusxa; **Obuna** – gazeta, jurnal va sh.k.ga oldindan haq to'lab yozilish. **Mundarija** – kitob yoki qo'lyozmaning boshida yoki oxirida uning fasl va bo'limlarini, odatda, betlari bilan ko'rsatuvchi ro'yxat; **Muqova** – kitob, jurnal, daftar va sh.k.ni yaxlit qilib biriktirib turuvchi, ichki varaqlarga nisbatan qalinroq materialdan yasaluvchi sirt qismi; **Ilyustratsiya** – matnga qo'shimcha tarzda uning mazmunini obrazli yoritishga, to'ldirishga xizmat qiladi [O'TIL, 2023].

Bugungi kunda zamonaviy matbuotda ijtimoiy tarmoqlar, elektron axborot oqimi va ularni tarqatish bilan bog'liq terminlar paydo bo'ldi. Jumladan:

Kontent – ma'lum bir kontekstda oxirgi foydalanuvchi yoki auditoriya uchun har qanday ommaviy axborot vositalariga va ayniqsa, raqamli mediaga ma'lumotlarning hissasi. Kontent – o'z-o'zini ifoda etish, tarqatish, marketing yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki turli xil san'at turlari kabi biron-bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo'lgan axborot vositasi". Kontent yaratishning odatiy shakllariga veb-saytlarni saqlash va yangilash, blog yuritish, maqola yozish, fotosuratlar, videografiya, onlayn sharhlar, ijtimoiy media akkauntlarini saqlash, raqamli mediani tahrirlash va tarqatish kiradi. Pew so'rovi kontent yaratishni "material, odamlar onlayn dunyoga hissa qo'shish", deb ta'riflagan.

Raqamli texnologiyalar – raqamli texnologiya analogdan farqli o'laroq, uzluksiz emas, balki diskret signallar bilan ishlaydi. Bundan tashqari, signallar



kichik qiymatlar to'plamiga ega, odatda, ikkita. Haqiqiy hayotda tizimlar, ayniqsa, buxgalteriya hisobini saqlash tizimlari uchta ma'noga asoslanadi. Odatda bular 0, 1, NULL bo'lib, ular mantiqiy algebrada mos ravishda "False", "True" qiymatlariga ega va NULL mavjud bo'lganda "natija yo'q". Raqamli sxemalar asosan VA, YOKI, EMAS va hokazo kabi mantiqiy elementlardan iborat bo'lib, hisoblagichlar va flip-floplar bilan ham bog'lanishi mumkin. Raqamli texnologiyalar asosan raqamli elektronikada, birinchi navbatda, kompyuterlarda, elektrotexnikaning turli sohalarida, masalan, o'yin mashinalari, robototexnika, avtomatlashtirish, o'lchash asboblari, radio va telekommunikatsiya qurilmalari va boshqa ko'plab raqamli qurilmalarda qo'llanadi.

Elektron jurnal – vaqtli nashr, bosma jurnalning elektron analogi, mobil yoki kompyuterda ko'rish mumkin. Internet orqali yoki har qanday axborot vositalarida tarqatiladi.

Elektron nashr (shuningdek, nashriyot, raqamli nashr, yoki onlayn nashr qilish) – raqamli nashrni o'z ichiga oladi: elektron kitoblar, raqamli jurnallar va rivojlanishi raqamli kutubxonalar va kataloglar. Shuningdek, unga asosan ekranda (kompyuterda) o'qish uchun mo'ljallangan kitoblarni, jurnallarni yoki jurnallarni tahrirlashdan iborat tahririy jihat kiradi.

Soha bo'yicha o'tkazilgan tahlil va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, matbaa taraqqiyoti bevosita uning tilshunoslik va terminologiya bilan uzviy aloqadorligida namoyon bo'ladi. Sohaning lug'aviy, semantik hamda funksional jihatlari tahlil qilinar ekan, ularning til tizimidagi o'zni, shakllanish qonuniyatlari hamda zamonaviy talablarga moslashuv darajasi aniqlab berildi. Maqolada an'anaviy terminlar bilan bir qatorda, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar bilan bog'liq yangi atamalar ham o'rganildi. Bu esa sohada yuz berayotgan jarayonlarning tilga, xususan, terminlarga ta'sirini ko'rsatdi. Shuningdek, sohada sinonimik terminlar (muharrir // redaktor, muallif // avtor, matn // tekst) mavjudligi, ko'p komponentli atamalarning tizimlashtirilishi zarurati, matbuot mahsulotlariga oid birliklarning (tiraj, muqova, mundarija, bosma taboq va b.) izohli lug'atlarda qanday yoritilayotgani o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, matbuot terminologiyasi o'zining dinamik xarakteri,



uslubiy qatlamlarga mansubligi va ijtimoiy-funksional yuklamasi bilan ajralib turadi.

Yangi media vositalarining ommalashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi esa “kontent”, “raqamli texnologiya”, “elektron jurnal”, “elektron nashr” kabi zamonaviy atamalarning faol muomalaga kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat esa zamonaviy terminologiyani doimiy yangilab borish, uni ilmiy asosda tizimlashtirish va me’yorlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, matbaa terminlari – bu nafaqat tarmoqning til vositasi, balki uning madaniy, texnologik va ijtimoiy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim qatlamidir. Mazkur sohadagi terminlarning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik uchun, balki amaliy kommunikatsiya, jurnalistika va axborot texnologiyalari sohalari uchun ham muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усмонов О., Дониёров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент, 1965. – Б. 675.
2. Фан ва турмуш. 1992. 11-сон. – Тошкент. – Б. 16.
3. Фан ва турмуш. 1986. 4-сон, 7-сон. – Тошкент. – Б. 15.
4. N.Raxmon. Turk hoqonligi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – Б. 65.
5. Hayitmetov A. Navoiy dahosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1970. – Б. 148–149.
6. Toxirov Z.T. Adabiy tahrir. – Toshkent: Tafakkur-bo‘stoni, 2012. – Б. 8-21.
7. Lenhart. Content Creation Online. Pew Internet and American Life Project (2004-yil fevral). 2014-yil 12-yanvarda asl nusxadan arxivlangan.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_tehnologiya_asoslari